

TIJORAT BANKI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Boboqulov Kamoliddin Gulmurodovich

Bank moliya akademiyasi magistranti

b_kbfa@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish jarayonini tahlil qilish va samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda kredit risklarini baholash, portfelni diversifikatsiyalash, innovatsion boshqaruv metodlari va raqamli texnologiyalar asosida yechimlar ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kredit portfeli, risk boshqaruvi, diversifikatsiya, innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalar, tijorat banki, Hamkorbank ATB, iqtisodiy samaradorlik. kreditlash, sanoat korxonalari, moliyalashtirish.

Abstract: This article aims to analyze the process of credit portfolio management of commercial banks and identify ways to improve its efficiency. The study considers the issues of credit risk assessment, portfolio diversification, innovative management methods and development of solutions based on digital technologies.

Keywords: Credit portfolio, risk management, diversification, innovative solutions, digital technologies, commercial bank, Hamkorbank JSCB, economic efficiency. lending, industrial enterprises, financing.

Bank sanoati dunyodagi yetakchi tarmoqlardan biridir. Tijorat bankining asosiy maqsadi foyda olish bo'lgani uchun kredit berish birinchi o'rinda turadi. Tijorat banklarining (2018) kreditlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy va investision xarajatlarini moliyalashtirish manbalaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, raqobat muhitida bank faoliyati nazoratchilari va menejerlari uchun moliyaviy aktivlarni optimal shakllantirish va ularni tog'ri taqsimlash muhim masala hisoblanadi. Tijorat bankining kredit portfelini shakllantirish, optimallashtirish va sifatli boshqarish kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kredit portfelining holati nafaqat bankning

kredit siyosati sifatini, balki kelgusida bank uchun kredit faoliyati natijalarini prognoz qilish imkonini ham beradi. Tijorat banklarining kredit portfelini to'g'ri shakllantirish, optimallashtirish masalalari va uning tahlili mobaynida bank tomonidan kreditlarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi, ta'minot turlari, kreditlarning sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit portfeli sifatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tijorat bankining kredit portfeli – bu bank tomonidan berilgan va hali qaytarilmagan barcha kreditlarni yig'indisidir. Kredit portfeliga muddati o'tgan kreditlar ham, shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar ham, sud jarayonidagi kreditlar ham kiradi. Tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi. Tijorat banklari o'z mijozlariga turli kurinishdagi kreditlar berishi mumkin.

Bugungi kunda bank sohasini yanada isloh qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tizimda sog'lom (2025) raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu jihatdan olganda, tijoratbanklari kredit portfelini shakllantirish va boshqarish samaradorligini oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Bu borada zamonaviy iqtisodiy muhit tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning oldini olib, mamlakatimiz bank ishining samaradorligini oshirish asosida xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi ijarat banklari kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmini yaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil qiluvchi kreditlar orasida muammoli aktivlarning mavjudligi sezilarli ahamiyatga ega bo'lmoqda. Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega. Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni keng jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishi

sifatida belgilab berilgan. Turli adabiyotlarda (2017) “tijorat banklari kredit portfeli” tushunchasi bank tizimi faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni ifodalaydigan asosiy tushunchalardan biriga aylandi. Uning ommalashishiga sabab “kredit portfeli” tijorat banklarining kredit bilan bog‘liq butun faoliyatida hal qiluvchi o‘rin tutadi. “Kredit portfeli” tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko‘rsatadigan omil bo‘lib qaraladi. Tijorat banklaridakredit portfelini samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir.

1 –jadval

Kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo‘linmalari soni

	01 .12.20	01 .12.21	01 .12.22	01 .12.23	01 .12.24	0 1.01.25
1	13	25	37	48	60	6 1
1. Kredit tashkilotlari, jami*	16 0	17 6	19 7	20 5	22 6	2 29
<i>shu jumladan:</i>						
Tijorat banklari, shundan:	32	33	31	35	36	3 6
Davlat ulushi mavjud banklar	13	12	12	10	9	9
Boshqa banklar	19	21	19	25	27	2 7
Nobank kredit tashkilotlari, shundan:	12 8	14 3	16 6	17 0	19 0	1 93
Mikromoliya tashkilotlari	63	69	84	84	96	1 00
Lombardlar	64	73	81	85	93	9 2

Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	1	1	1	1	1	1
2.Tijorat banklari filiallari, jami	86	86	84	69	43	2
3.Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar)	1	1	1	1	1	1
	204	246	516	796	759	720
4. 24/7 shoxobchalari	1	2	2	3	4	4
	364	245	926	707	409	447


Manba Markaziy bank rasmiy ma'lumotlaridan olingan

Keltilgan 1 –jadvalda ko'rishimiz 2020 yildan 2025yilning 1 yanvar holatidagi kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalari soni jami 2020 yil 12 dekabr holatiga ko'ra 160 tani tashkil etadi shundan Tijorat banklari 32 , Nobank kredit tashkilotlari 128 ta, Tijorat banklari filiallari, jami 861 ta, bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar) soni 1 204 ta, 24/7 shoxobchalari 1364 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. 2025 yil 1 yanvar oyi holatiga ko'ra 229 tani tashkil etadi shundan Tijorat banklari 36 , nobank kredit tashkilotlari 193 ta, tijorat banklari filiallari jami 288 ta, bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar) soni 1720 ta, 24/7 shoxobchalari 4447 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan Hamkorkbankning Respublikaning barcha ma'muriy hududlarini qamrab olgan 157 ta bank xizmatlari ofislariga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-son Farmonida jahon moliya tizimida yuz berayotganjiddiy o'zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini

shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yanada rivojlantirishda yangicha yondashuv va prinsiplar qo'llanilishini taqozo qilayotganligi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, shuningdek pul-kredit siyosati, umuman bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi ustidan samarali nazoratni va Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirishni ta'minlash maqsadida narxlar barqarorligi, bank tizimi barqarorligi va rivojlanishi, to'lov tizimi barqarorligi va rivojlanishini ta'minlash Markaziy bankfaoliyatining strategik maqsadli yo'nalishlari etib belgilandi. Shuni ta'kidlash lozimki, bank tizimini rivojlantirish vamustahkamlash masalasi dolzarb bo'lib, o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish lozim. Chunki, moliyaviy muassasalar orasida banklar iqtisodiyotni keng taraqqiy qildiruvchi va zarur mablag'bilan ta'minlovchi tarmoq hisoblanadi. Mamlakatimizning (2019) moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'pgina ularning samarali faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Tijorat banki aktivining tarkibi kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari, Markaziy bank hisobvaraqlari, majburiy zahira hisobvarag'i, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari va mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, sotib olingan debitorlik qarzlari (faktoring), qisqa va uzoq muddatli kreditlar, lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashzaxirasi, investitsiyalar, sud jarayonidagi kreditlar, tugallanmagan qurilishlar, bankning imoratlari, obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi, to'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari va operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar, transport vositalari, mebel, moslama va jihozlar, nomoddiy aktivlar, ombordagi asosiy vositalar, hukumat hisobvaraqlari hamda boshqa aktivlar kabilardan iborat. Kredit deganda (2017) o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar tushuniladi Bank o'zgalar pulini jamlab uni o'z nomidan kreditga beradi. Bu yerda kredit munosabatlari quyidagi subyektlar: pul egasi, ya'ni qarz beruvchi (kreditor) va pulga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi (qarzdor) o'rtasida yuzaga keladi (1-rasm).

1-rasm.

Kredit munosabatlari ishtirokchilar



Manba muallif tomonidan tuzildi.

Keltrilgan rasimga ko'ra kredit munosabatlari ishtirokchilari tijorat banklari faoliyatini diversifikatsiya qilishda faol ishtirok etadilar. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini diversifikatsiya qilish va bank faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha nazariy va empirik tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Olib borilgan tahlillarga (2025) asosan Hamkorbank ATB bank tuzilmasiga to'xtaladigan bo'lsak, Xorijiy kapital ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki O'zbekiston Respublikasi bank xizmatlari bozorida 1991 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Dastlab Andijon shahrida o'z faoliyatini boshlagan Bank 33 yil davomida O'zbekiston Respublikasining barcha ma'muriy hududlarini qamrab olgan kengaytirilgan filiallar tarmog'ini rivojlantirdi. Bugungi kunda bankning 209

ta xizmat ko'rsatish shoxobchasi mavjud bo'lib, ularning 42 ta filiali, 168 ta mini-banki mavjud. Shuningdek, bank tomonidan 6 ta sho'ba korxona faoliyati tashkil etildi. Bank mijozlarning keng doirasi uchun 50 dan ortiq moliyaviy xizmatlarni taklif qiluvchi xizmatlarni taqdim etadi. Kengaytirilgan xizmat ko'rsatish tarmog'i bankni yanada jozibador va mijozlar uchun qulay bo'lishiga yordam beradi. Bank mijozlari yuridik shaxslar, shu jumladan yirik kompaniyalar, kichik va o'rta biznes, mikrofirmalar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslardir. Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston iqtisodiyotining real sektorini kreditlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida texnik va texnologik modernizatsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shu bilan birga, Bank mamlakatimiz moliya

bozorini rivojlantirish bilan bir qatorda, o'z omonatchilari, mijozlari va aktsiyadorlarining imtiyozlariga ustuvor ahamiyat beradi. Bankning ishonchliligi va barqarorligi ko'rsatkichi xalqaro Moliya institutlari (IFI) bilan mikromoliyalashtirish va kichik biznes sub'ektlarini kreditlash, savdoni moliyalashtirish va institutsional rivojlanish uchun texnik yordam ko'rsatish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda 10 yilk muvaffaqiyatli hamkorlik orqali namoyon bo'ladi. Moliya institutlar bilan hamkorlik bankni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. biznesning quyidagi yo'nalishi, ya'ni korporativ, kichik va chakana biznes yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan. Bankning asosiy faoliyati bo'lib kreditlash, chakana xizmatlar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, chet el valyutalari bilan operatsiyalar va savdoni moliyalashtirish kabilar hisoblanadi. Hamkorbank ATB O'zbekistondagi xorijiy investor ulushi ishtirokidagi universal bank sifatida O'zbekiston bank tizimida jami aktivlari bo'yicha 7,1 foiz ulush bilan 5-o'rinni egallaydi. Hamkorbank ATB ipoteka kreditlarini berish va uy-joy qurilishini moliyalash bo'yicha yetarli tajribaga ega bank hisoblanadi. 2024 yilda «S&P Global Reytings» agentligi (2024) Ushbu reyting ko'rsatkichlari bankning barqaror moliyaviy natijalarini aks ettiradi va O'zbekistonning o'rtacha bank sektoridan ko'ra yaxshiroq ekanligini tasdiqlaydi. Ular xususan, aktivlarning yuqori sifatini, rentabelligini hamda barqaror moliyalashtirish va likvidlik profilini o'z ichiga oladi. Hamkorbankning ko'rsatkichlarini qayta baholadi. O'zgarishlar - BB-/B darajasida «Barqaror»! Reyting ko'rsatkichlarining o'zgarishi yuqori darajadagi daromad, aktivlarning yaxshi sifati va Hamkorbankning kapitalizatsiyasi o'sishini ko'rsatadi. Moody's investors service agentligi (2024) B1«Barqaror» reyting ko'rsatkichlarini ko'rsatdi. Bank yuridik vajismoniy shaxslardan omonatlarni qabul qiladi va aholiga kreditlar beradi, shuningdek O'zbekiston va xorijga pul o'tkazmalari xizmatlarini ko'rsatadi. Bank 39 ta filial va 200 dan ortiq bank xizmatlari markazlari orqali 1,6 mln. nafardan ortiq korporativ va chakana mijozlarga xizmat ko'rsatadi. Hamkorbank xalqaro moliya korporatsiyasi bilan birgalikda xorijiy korporativ boshqaruvni joriy qilgan. Bankning sifat sohasidagi asosiy vazifalariga bankning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini oshirish imkoniniberuvchi raqobatbardoshlik, turli-tumanlik va bank xizmatlarining yuqori darajasini ta'minlash kabilar kiradi. Xulosa shuki, tijorat banklari faoliyatidagi mavjud muammolarni oldini olish orqali mamlakatimizda bank faoliyati

samaradorligini oshirish asosida xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi bank tizimini yaratishni taqozo qiladi. Natijada, tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalashga erishiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 01 martdagi PQ-83-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida 2023-2025 yillarda operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi bir qator yirik tijorat banklari isloh qilinishi belgilangan. Bu o'z navbatida mazkur tijorat banklariga moliyaviy ko'rsatkichlarni biznes-reja ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish, aktivlar sifatini oshirish va eng muhimi – muammoli kreditlar (NPL ko'rsatkichi) darajasini pasaytirish vazifasini yuklaydi. Bu esa, tijorat banklarining kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni undirish amaliyotini takomillashtirish, hamda xorij tajribasiga tayangan holda yangi ilg'or g'oyalarni tadbiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-son Farmoni
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
3. Abdullayeva Sh.Z. (2017) Kredit va kreditlash. Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya
4. Omonov A.A., Qoraliyev (2019) T.M. Pul va banklar. Darslik. -T.: "IQTISOD-MOLIYA" 461 b.
5. Abdullayeva Sh.Z. (2017) Bank ishi: Darslik.-T.: Iqtisod moliya,
6. Abdullayeva Sh.Z. Kredit va kreditlash. (2017) Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya,
7. Abdullayeva Sh.Z. (2018) Pulva banklar. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-Moliya", -756 b. <https://www.ipotekabank.uz/uz/about/reports/>.
8. [АКБ Хамкорбанк | LinkedIn](#)
9. Boboqulov Kamoliddin Gulmurodovich "Tijorat banki kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish yo'llari" ("Hamkorbank" ATB misolida) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya 2025 yil. 29-36 betlar.